

Noyabr, 2024-Yil

**XALQARO SHARTNOMALAR ASOSIDA HAVO TRANSPORTIDA YO'LOVCHI
TASHISHDA YETKAZILGAN ZARARLARNI QOPLASH MASALALARI**

Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti.

Farg'ona viloyat yuridik texnikumi

“Mutaxassislik fanlar” kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14217018>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola xalqaro shartnomalar asosida havo transportida yo'lovchi tashishda yetkazilgan zararlarni qoplash masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Monreal konvensiyasi va boshqa xalqaro shartnomalar doirasida aviatsiya sohasida yo'lovchilarning huquqlarini himoya qilish va zararlarni qoplash tartiblari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yo'lovchi, tashuvchi, zararni qoplash, Varshava konvensiyasi, Gaaga protokoli, Monreal konvensiyasi, aviahalokat, javobgarlik.

**ISSUES OF COMPENSATION OF DAMAGES CAUSED IN PASSENGER
TRANSPORTATION IN AIR TRANSPORT ON THE BASIS OF INTERNATIONAL
AGREEMENTS**

Abstract. This scientific article examines issues related to compensating for damages incurred during passenger transport by air based on international agreements. It analyzes the Montreal Convention and other international treaties concerning the protection of passenger rights and compensation procedures within the aviation sector.

Key words: passenger, carrier, damages, Warsaw Convention, Hague protocol, Montreal Convention, air crash, liability.

**ВОПРОСЫ ВОЗМЕЩЕНИЯ УБЫТКА, ПРИЧИНЕННОГО ПРИ ПАССАЖИРСКИХ
ПЕРЕВОЗКАХ НА ВОЗДУШНОМ ТРАНСПОРТЕ НА ОСНОВЕ
МЕЖДУНАРОДНЫХ СОГЛАШЕНИЙ**

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются вопросы, связанные с возмещением ущерба, причиненного при перевозке пассажиров воздушным транспортом, на основе международных соглашений. Анализируются Монреальская конвенция и другие международные договоры, касающиеся защиты прав пассажиров и процедур компенсации в авиационном секторе.

Ключевые слова: пассажир, перевозчик, возмещение ущерба, Варшавская конвенция, Гаагский протокол, Монреальская конвенция, авиакатастрофа, ответственность.

Noyabr, 2024-Yil

Havo transporti xalqaro aloqalarni rivojlantirishda va savdo-iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ammo bu transport turi bilan bog'liq xavfsizlik va huquqiy masalalar, xususan yo'lovchilarga yetkazilgan zararlarni qoplash bilan bog'liq muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Xalqaro shartnomalar va kelishuvlar ushbu sohada muhim huquqiy asoslarni yaratadi va zararlarni qoplash mexanizmlarini belgilaydi.

2022 yilgi ICAO¹ statistikasiga ko'ra, dunyo miqyosida 2022 yilda jami 38 ta halokat sodir bo'lgan. Bu halokatlar natijasida 160 nafar yo'lovchi va ekipaj a'zolari halok bo'lgan. 2019 yildagi statistik ma'lumotlar yil davomida dunyoda 86 ta aviahalokat sodir bo'lgani, buning natijasida jami 257 kishi halok bo'lganini ko'rsatadi. 2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasi transport statistikasi:

O'zbekiston Respublikasi hududida 2020 yilda jami 3 ta aviahalokat sodir bo'lgan.

Natijada 12 nafar yo'lovchi va ekipaj a'zolari jabrlangan. Shuningdek, kompensatsiya to'lovlari jami 1 million dollardan ortiq miqdorni tashkil etgan.

Havo transportida yo'lovchi tashishda yetkazilgan zararlarni qoplash masalalari asosan bir nechta xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi. Ularning eng muhimlari Varshava konvensiyasi (1929 yil), Gaaga protokoli (1955 yil), Monreal konvensiyasi (1999 yil).

Varshava konvensiyasi 1929 yilda qabul qilingan bo'lib, xalqaro havo tashuvlari sohasida muhim huquqiy asoslarni yaratdi. Ushbu konvensiya asosan tashuvchi kompaniyalar va yo'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, javobgarlik chegaralarini o'rnatish, ya'ni tashuvchi kompaniyalarning yo'lovchilarga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik miqdorini belgilash, zararlarni qoplash bo'yicha sud jarayonlarini soddalashtirish va yo'lovchilar uchun huquqiy himoyani kuchaytirish maqsadlarini ko'zda tutadi. Ta'kidlash joizki, xalqaro havo qatnovi deganda birdan ortiq davlatning samoviy hududi orqali amalga oshiriladigan havoda qatnovi tushuniladi.

Varshava konvensiyasiga asosan tashuvchining javobgarligi cheklandi, ya'ni faqatgina uning aybi bilan yetkazilgan zarar uchun va yo'lovchilar uchun zararlarni qoplashning chegaralangan miqdori belgilandi. Varshava konvensiyasining 21-moddasiga ko'ra, agar tashuvchi yetkazilgan zarar to'liq yoki qisman jabrlanuvchining aybi bilan yuzaga kelganligini isbotlasa, sud o'z qaroriga muvofiq; tashuvchini javobgarlikdan to'liq yoki qisman ozod qilishi mumkin.

¹ IKAO–Xalqaro fuqarolik aviasiyasi tashkiloti (ICAO -International Civil Aviation Organization). IKAO 1944 yilda Xalqaro fuqaro aviasiyasi to'g'risidagi Chikago konvensiyasi bilan fuqaro aviasiyasining xavfsizligi va samaradorligini oshirish, uning rivojlanishini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan.

Noyabr, 2024-Yil

Aytib o'tish joizki, bu konvensiya xalqaro havo transportida tashuvlarni tartibga solish va yo'lovchilar, yuk va pochta tashish bilan bog'liq zararlarni qoplash qoidalarini belgilash maqsadida qabul qilingan. Konvensiyaning 22-moddaisga binoan zarar uchun tashuvchining javobgarligi chegaralangan miqdorlarda belgilangan. Garchi bu moddada va umuman Konvensiyada manaviy zarar haqida gap bormasada, amaliyotda manaviy zarar undirish masalasini ham ko'ndalang qo'yish mumkin. Masalan, B.Xamroqulovning fikricha, bordiyu O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga xalqaro havo yo'lida yo'lovchi, bagaj va yuk tashish natijasida ma'naviy ziyon etkazilgan bo'lsa, ma'naviy ziyon ko'rgan fuqaro etkazilgan ma'naviy ziyonni qoplashni sud tartibida iste'molchi sifatida talab qilishi mumkin.

Gaaga protokoli 1955 yilda Varshava konvensiyasini yangilash va unga qo'shimchalar kiritish maqsadida qabul qilingan. Protokol yo'lovchi foydasiga quyidagi asosiy o'zgarishlarni kiritdi:

- 1.Tashuvchilarning yo'lovchilarga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik miqdori oshirildi.
- 2.Havo transportida tashuvlarda foydalaniladigan hujjatlarni soddalashtirish va jarayonlarni takomillashtirdi.

Ko'rinib turibdiki, Gaaga protokoli yo'lovchilar uchun zararlarni qoplashni osonlashtirdi va ularning huquqlarini yanada kuchaytirdi. Ushbu protokol bilan yo'lovchilarga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik miqdorlari oshirilgan.

Havo transportida yetkazilgan zararlarni qoplash masalasida xalqaro hujjatlar orasida Monreal konvensiyasi (1999 yil) alohida o'ringa ega. Bu konvensiya Varshava konvensiyasi va unga oid protokollarni birlashtirgan va xalqaro havo tashuvlarida yo'lovchi huquqlarini himoya qilishni kuchaytirdi. Monreal konvensiyasida zarar uchun javobgarlik chegaralari yuqori darajaga olib chiqilgan va yo'lovchilar uchun huquqiy himoya mexanizmlari takomillashtirilgan. Unga muvofiq zararlarni qoplash uchun tashuvchining javobgarligi ikki darajaga bo'lingan:

Birinchi daraja: Yo'lovchining o'limi yoki tan jarohati tufayli yetkazilgan zarar uchun tashuvchi avtomatik ravishda javobgar bo'ladi. Bu zarar uchun eng yuqori javobgarlik miqdori SDR (Special Drawing Rights) 100,000 ni tashkil etadi. Tashuvchi ushbu miqdorni to'lash majburiyatiga ega bo'lib, o'zining aybsizligini isbotlash orqali undan qochib qutulishi mumkin emas.

Ikkinchi daraja: Agar zarar miqdori SDR 100,000 dan oshsa, tashuvchi zarar yetkazilganligini yoki o'z aybsizligini isbotlash orqali yuqori miqdorda javobgarlikdan ozod bo'lishi mumkin.

Noyabr, 2024-Yil

Shunday qilib, tashuvchi kompaniya o'z aybsizligini yoki zarar yo'lovchi yoki boshqa uchinchi tomonning aybi tufayli yetkazilganligini isbotlagan holda javobgarlikdan ozod bo'lishi mumkin.

Havo transportida yo'lovchiga zarar yetkazilgan hollarda yo'lovchi yoki uning vorislari tashuvchi kompaniyaga murojaat qilishi va zarar miqdorini aniqlash uchun tegishli hujjatlarni taqdim etishi kerak. Chunki yo'lovchilar havo transportida yo'l qo'yilgan noqulayliklar, jarohatlar yoki o'lim holatlarida kompensatsiya olish huquqiga ega. Bunday holatlarda tashuvchi kompaniyalar ko'pincha sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlik qiladi va sug'urta qoplamalari orqali yo'lovchilarga zararlarni qoplashni ta'minlaydi.

Shunday qilib, havo transportida yo'lovchi tashishda yetkazilgan zararlarni qoplash xalqaro huquqiy asoslar orqali tartibga solinadi. Varshava konvensiyasi, Gaaga protokoli va Monreal konvensiyasi bu sohada muhim huquqiy asoslar hisoblanadi. Monreal konvensiyasi zamonaviy havo transporti sharoitlariga moslashgan holda yo'lovchilar huquqlarini yanada kuchaytirdi va zararlarni qoplash mexanizmlarini takomillashtirdi. Shu tariqa, xalqaro havo transportida yo'lovchilar xavfsizligi va huquqiy himoyasi kafolatlanmoqda.

REFERENCES

1. Варшавская конвенция 1929 года Об унификации некоторых правил, касающихся международных воздушных перевозок (Гамбургские правила) г. Варшава, 12 октября 1929 года.
2. Gaaga bayonnomasi.1955 yil. <https://old.lex.uz/docs/-2671799>
3. Конвенция для унификации некоторых правил международных воздушных перевозок https://www.vip-class.ru/Montreal%20Convention_MC99.pdf.
4. Остроумов Н.Н. Монреальская конвенция об унификации некоторых правил, касающихся международных воздушных перевозок 1999 г., и ответственность перевозчика за жизни здоровье пассажира // Московский журнал международного права. 2004. N 4 (56). С. 130.
5. Rashidov K.K. Xalqaro ko'lamda yo'lovchi va yuk tashish huquqi: darslik.-T.:JIDU, 2007.
6. Xalqaro ommaviy huquq: darslik\ A.X.Saidov va boshqalar.-T.: TDYU nashriyoti, 2023 – 952 bet.